



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 02 | pp. 179-183 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AUDITORLIK RISKINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Vahobov Akmal Valiyevich
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada auditorlik riskini xalqaro standartlar asosida baholashning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilib mamlakatimiz audit tizimida qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: audit riski, aniqlanmaslik, auditorlik dalillari, nazorat vositalari riski, ichki audit tizimi.

Kirish.

Zamonaviy korporativ boshqaruvin tizimidan kelib chiqqan holda shu narsa ma'lumki, korxona egalari(aksiyadorlar, ta'sischilar) ma'lum bir korxonani ochishga yoki bo'lmasa uning rivojlanishi uchun o'zlarining mablag'larini kirlitsa, ijrochilar(direktorlar) mazkur mablag'larni samarali boshqarish orqali korxonaning asosiy maqsadi bo'lgan foydani oshirishga xizmat qilishadi ba'zan zarar ham ko'radi. Korxona egalari(aksiyadorlar, ta'sischilar) korxonaning kundalik faoliyatlariga aralashmaydi, korxona uchun muhim bo'lgan qarorlarni qabul qilish masalalari bundan mustasino. Korxonada ijrochilar(direktorlar)ning asosiy vazifalari korxonada umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, korxona tomonidan shartnomalarni tuzish va boshqa bir qator kundalik vazifalarni bajaradi va ma'lum bir davrda amalga oshirilgan ishlarni bo'yicha foydalanuvchilarga tegishli ma'lumotlarni hisobot tarzida taqdim etadi, mazkur hisobotlaridan ba'zi birlarini biz moliyaviy hisobotlar deb ataymiz

Yuqoridaqilardan kelib chiqib shunday xulosa qilishimiz mumkin bo'ladiki, korxona tomonidan tuziladigan hisobotlar ijrochilar(direktorlar) tomonidan tuziladi ya'ni biznes faoliyatini o'zlari amalga oshirib va buning natijasidagi hisobotlarni ham o'zlari tuzib foydalanuvchilarga taqdim etishadi, xususan moliyaviy hisobotlarni ham. Mazkur jarayonda kelib chiqib, shunday bir savol ya'ni tuzilgan moliyaviy hisobotlar qay darajada ishonchli va foydalanuvchilarga to'g'ri optimal qarorlar qabul qilishga yordam beradimi yoki yo'qmi degan savol paydo bo'ladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etishga auditorlik xizmatining hissasi katta bo'ladi. Zamonaviy auditning rivojlanish bosqichida auditorlarning asosiy vazifasi aksiyadorlar(ta'sischilar) bilan ijrochilar(direktorlar) o'rtasida ishonchni ta'minlash ya'ni ijrochilar(direktorlar)ning ish faoliyatini ya'ni hisobotlarini tekshirib, aksiyadorlar(ta'sischilar)ga xolis, haqqoniy auditorlik fikrini shakllantirib berishdan iborat. Xolis, haqqoniy auditorlik fikrlarini shakllantirishda auditor aniq bir dalillarga

asoslanadi, ba'zan professional mulohazasidan tayanib ish yuritadi. Auditorlik faoliyati ham albatta tijorat faoliyati bo'lib, asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan bo'ladi va shu sababli auditorlik xizmati ba'zi bir masalalarda mijoz manfaatlaridan kelib chiqqan holda mulohaza yuritadi. Auditorlik riski masalasi shular jumlasidandir.

Audit riskini aniqlash auditordan professional mulohaza talab etiladi, chunki risk tushunchasi deganda audit jarayonlarida auditorlar tomonidan tekshiruvdan oldin moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonlarida mavjud bo'lgan va tekshiruv davomida aniqlanmaydigan xavf-xatarlarni bo'lishiga aytildi. Risk tushunchasi bevosita audit jarayonlariga hamda bildiriladigan audit fikrlariga ta'sir ko'rsatadi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy hisobotda jiddiy noto'g'ri ko'rsatilganda auditor noto'g'ri auditorlik fikrini bildirish xavfi. Auditorlik riski - bu jiddiy noto'g'ri ma'lumotlar va aniqlash xavfining funktsiyasi. (*Xalqaro audit va kafolat standartlari 2009*)

Audit jarayonida audit riski uchta shaklda yuzaga keladi :

- Rejallashtirilgan tavakkalchilik (ya'ni shartnomada tuzishda yuzaga keladigan xavf),
- Audit davomidagi tavakkalchilik (ularning ishi tugaguniga qadar auditor uchun noma'lum xavf),
- Hisoblangan risk (u auditorga audit davomida ma'lum). (*Nikolovskiy 2004*)

Auditor har doim auditorlik riskini minimallashtiradigan va moliyaviy hisobotdagi xatolar, firibgarlik va boshqa qoidabuzarliklarni maksimal darajada aniqlashga imkon beradigan yetarli jarayonlarni rejallashtiradi. Ayniqsa, auditor xatolar takrorlanadigan yuqori xavf sohalarini aniqlashi zarur. Risk darajasini aniqlashda auditor quyidagi savollarga javob berishi kerak:

- Ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish uchun biron bir rag'bat bormi (direktorlar yoki amaldorlar tomonidan)?
- Ushbu turdagani ma'lumotlar bilan manipulyatsiya qilish qiyinmi?
- Bunday manipulyatsiyalarni aniqlash va oldini olish qiyinmi?
- Ushbu turga oid xatolar qasddan qilinganmi (tasodifiy)? (*Aceski va Traykoski 2004*)

Moliyaviy hisobot auditining umumiyligi riskini ko'rib chiqish qiyin bo'lganligi sababli, moliyaviy hisobotga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan noto'g'ri hisobotlar xavfini quyidagi uchta guruhga bo'lish mumkinligini yodda tutish kerak:

- Ajralmas riski (hisobotlarda jiddiy xatolar paydo bo'lish xavfi);
- Nazorat vositalari riski (ichki nazorat bunday xatolarni aniqlamasligi yoki oldini olmaslik xavfi);
- Aniqlanmaslik yoki aniqlanmaslik riski (auditor muhim xato hisobotlarini aniqlamasligi xavfi). (*Spensir Pikett 2006*)

3. Tadqiqot metodologiyasi.


Tadqiqotda induksiya, deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, guruhash, eksperiment, adaptiv usullar, integratsion yondashuvlar, aktivlar qadrsizlanish hisobi va usullarini takomillashtirish masalalari bo'yicha xalqaro tajribalar tahlili va aprobatsiyasidan foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi

Yuqorida olimlar tomonidan auditorlik riski to'g'risida bir qancha ta'rif va fikrlar berilib o'tilgan mazkur ta'rif va fikrlardan kelib chiqqan holda audit riskini bevosita audit

jarayonida ta'sir ko'rsatadigan uni oqilon ishonch berishga undaydigan xavf-xatarlar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Auditorlik risklari ikki turga bo'linadi va quyida kelterilgan jadvalda ko'rishimiz mimkin bo'ladi:



1-rasm. Auditorlik riski va uni turkumlanishi¹

Muhim buzib ko'rsatishlar riski-audit qilishdan oldin moliyaviy hisobotning muhim buzib ko'rsatishlarni o'z ichiga olgan bo'lishi mumkinligi riski. Muhim buzib ko'rsatishlar o'z navbatida ikkiga ya'ni ajralmas va nazorat vositalar riskiga bo'linadi.

Ajralmas risk bu moliyaviy hisobot bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar guruhi, schyotlarning aylanmalari va qoldiqlari to'g'risidagi axborotlar hamda yoritishlarning nazorat vositalarini tekshirishdan oldin buzib ko'rsatishga moyilligi riskidir.

Nazorat vositalar riski-nazorat vositalari moliyaviy hisobot bilan bog'liq axborotlarning muhim darajada buzib ko'rsatilishini oldini ola olmasligi yoki o'z vaqtida aniqlab bartaraf eta olmasligi riskidir. Mazkur risk korxonadagi nazorat vositlarining yaxshi ishlamasligi natijasida yuzaga keladi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan ikkala risk korxona faoliyatiga bog'liq hiaoblanadi.

Oxirgi risk turi bu aniqlanmaslik riski bo'lib, mazkur bevosita auditorga bog'liq risk hisoblanadi. Aniqlanmaslik riski bu auditor tomonidan auditorlik riskini maqbul darajagacha pasaytirish uchun o'tkazilgan protseduralar moliyaviy hisobot bilan bog'liq axborotda mavjud bo'lgan muhim buzib ko'rsatishlarni aniqlay olmasligi riskidir. Aniqlanmaslik riski ham ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Tanlash bilan bog'liq bo'lgan risk. Mazkur riskda auditor ish hajmini kattaligini tekshirilayotgan ma'lumotlar ko'pligini hisobga olib tanlab tekshirishni amalga oshiradi biroq to'plamdan tanlab olingan bo'laklarni tekshirib va tekshiruv natijasini butun to'plamga tatbiq qilishi natijasida mazkur to'plamdagи buzib ko'rsatishlarni o'tkazib yuborishi mumkin bo'ladi. Bu esa riskni yuzaga keltiradi. Tanlashda to'plamni zichligini, tekshiriladigan tanlashlarni sonini ko'paytirish orqali auditor riskni ma'lum darajada kamaytirishi mumkin bo'ladi biroq to'liq bartaraf eta olmaydi.

2. Tanlash bilan bog'liq bo'limgan risk bu mijoz korxonaning auditor uchun yangi mijoz ekanligida va auditor tomonidan mazkur turdagи mijoz korxonlarni

¹ ACCA F8 Audit and Assurance textbook

tekshirishida tajribasi yetarli emasligida namoyon bo'ladi. Bunday hollarda auditor qo'llaniladigan tekshiruv amallarini shaxsan o'zi o'tkazib iloji boricha auditorlik guruhiga tajribali auditor va auditor yordamchilarini yollashi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

"Auditorlik riskining bunday turlaridan tashqari, auditor tekshirgan moliyaviy hisobotlar va shikoyat qilingan auditorlik hisobotlari bilan bog'liq sud jarayonlari, salbiy oshkoralik yoki boshqa hodisalar tufayli o'z kasbiy amaliyotini yo'qotish va buzish xavfi ostidadir.

Auditorlik riskining ikkinchi komponenti bu auditorning biznes riskidir. Auditor audit o'tkazgan va moliyaviy hisobotni ko'rib chiqqandan keyin tegishli hisobot bergen bo'lsa ham, biznes riski mavjud. Auditorlik risklarining ushbu toifalari audit jarayonida favqulodda ahamiyatga ega.

Auditni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan sub'ektlarni hisobga olgan holda ichki va tashqi audit mavjud. Amerika Buxgalterlar Assotsiatsiyasi (American Accounting Association - AAA) qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, audit "iqtisodiy hodisalar va natijalar to'g'risidagi hisobotlar bilan bog'liq dalillarni ob'ektiv ravishda to'plash va baholashning tizimli mavjud operatsion hisobotlar va oldindan belgilangan mezonlar va natjalarni manfaatdor tomonlarga tarqatish jarayonidir."²

Ichki audit tizimi deb xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati tomonidan korxona ichida tashkil etilgan, umumiylar korxona bo'yicha yoki bo'lmasa uning alohida bo'limlari, tarmoqlari bo'yicha operatsion ish faoliyati natjalarni baholashga mo'ljallangan tizimga aytiladi. Mazkur tizim korxonaning axborot bilan ta'minlovchi quyi tizimi ichida yotadi va boshqaruv masalalari uchun tegishli biznes qarorlarini qabul qilishda ma'lumot bilan ta'minlash vazifasini bajaradi. Tashqi audit auditorlik sertifikatiga ega tashqi auditorlari tomonidan amalga oshirilib, ular moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarni to'g'ri va haqqoniy aks ettirilganligi bo'yicha auditorlik sub'ekti rahbariyatidan mustaqil holatda fikr bildiradi va mazkur auditorlik xizmatlari orqali keng jamoatchilikning qiziqishlariga sabab bo'ladi va iqtisodiyotni o'sishiga, uning samaradorligini oshirish hamda korrupsiya va boshqa turdag'i firibgarlik va moliyaviy suiiste'mollikning oldini olishga ko'maklashadi. Auditning asosiy maqsadi bu barcha foydalanuvchi tomonlarga xo'jalik yurituvchi subyekti rahbariyat tomonidan taqdim etilgan moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarning ishonchlilagini isbotlashdan iborat. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati buxgalteriya hisobini tashkil etish, uzlusiz ravishda amalga oshirish hamda moliyaviy hisobotlarni qabul qilingan standart talablari asosida tayyorlashga ma'suldirlar.

5. Xulosa.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladiki auditda riskini baholash o'ziga xos maqsad va vazifalariga ega bo'lib, bevosita auditor tomonidan taqdim etiladigan oqilona fikrni ishonchlilagini oshirishga xizmat qiladi.

Auditorlik riskini to'g'ri baholash auditorlik tekshiruvida amal qiladigan bir qancha jarayonlar ta'sir qiladi. Xususan riskni baholash auditorlik dalillarini to'plash jarayoniga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Audit amaliyotida shunday bir holat mavjudki, ya'ni umumiylar auditorlik riski qanchalik past bo'lsa, auditorlik dalillarga hamda ularning

² Pece Nikolovskia *, Igor Zdravkoskib , Goce Menkinoskic , Snežana Dičevskad , Vera Karadjova. The Concept of Audit Risk. International Journal of Sciences: Basic and Applied Research (IJSBAR)

ishonchlilik darajasiga bo'lgan talab yuqori bo'ladi. Mazkur holatlarda auditorlar iloji boricha ishonchli dalillar to'plashga harakat qilishadi chunki to'plangan dalillarning ishonchi qancha yuqori bo'lsa auditor tomonidan bildiriladigan fikr darajasi shunchalik oqilona va ishonchli bo'ladi.

6. Adabiyotlar/ Literatura/Reference:

1. P. Nikolovskiy. Auditni tashkil etish, (makedon tilida). Prilep: Iqtisodiyot fakulteti, 2004 yil
2. B. Aceski, B. Traykoski. Ichki va tashqi audit, (makedon tilida). Prilep: Iqtisodiyot fakulteti, 2004 yil
3. K.H Spenser Pikett. Auditni rejalashtirish: riskga asoslangan yondashuv, Nyu-Jersi: Wiley, 2006 yil
4. Pece Nikolovskia *, Igor Zdravkoskib , Goce Menkinoskic , Snežana Dičevskad , Vera Karadjova. The Concept of Audit Risk. International Journal of Sciences: Basic and Applied Research (IJSBAR)
5. ACCA F8 Audit and Assurance textbook
6. http://eprints.uklo.edu.mk/3074/1/5141-1_5408-1-PB.pdf

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

